

IQTISODIYOT TARMOQLARI SOXASIDA ISLOHATLAR VA UNING NAZARIY TAHLILI

Xudarganov Toxirjon Otabek o'g'li

Email: tohir.xudarganov71@gmail.com

Tel: 976078244

Allayarov Dilshodbek Raximboy o'g'li

Mamun University

Email: dilshodallayarov778@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13959450>

Annotatsiya: Mazkur tezisda bugungi kunda iqtisodiy islohatlar olib borilayotgan davrida yurtimizda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohatlar va ularning tahlili yoritib beriladi. Shuningdek, davlat tuzilmasidagi o'zgarishlarning iqtisodiy islohatlar va o'sishga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Islohat. Iqtisodiy o'sish, Yevropa Ittifoqi, davlat budjeti, YaIM, moliya jarayoni, valyuta.

KIRISH.

Dunyodagi iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda davlatning mustahkam moliyaviy nazorati mexanizmlari aholi ishonchini saqlash, soliq to'lovchilarning pul mablag'laridan to'g'ri foydalanishni ta'minlash, korrupsiyaning oldini olish va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda davlat moliyasini monitoring qilish, moliyaviy jarayonlarni baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va moliyaviy qonunchilikka rioya qilishni ta'minlash borasida barqaror kompleks tizim yaratilgan. Yevropa Ittifoqida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, davlat tomonidan amalga oshiriladigan dasturlarni byudjetdan moliyalashtirishda sarflanadigan xarajatning miqdori bilan birga, undan foydalanish samaradorligini oshirish zarur natijalarga erishishga xizmat qiladi. Davlat byudjeti defisiti 3 foizdan oshmagan Yevropa Ittifoqi davlatlarda davlat dasturiga sarflangan mablag'lar tahliliga ko'ra, yoshi va jinsiga qarab kambag'allik riski bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 21,45 ni tashkil etgan, shu bilan birga, sarflangan mablag'larning ijrosi nazoratiga bog'liq ravishda o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 5,97 birlikda farqlar mavjud (variatsiya 27,85%), qaysiki byudjet defisiti miqdori 3 foizdan oshgan davlatlarda mazkur o'rtacha ko'rsatkich 25,14 ga teng bo'lgan. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, xarajatlarni haddan tashqari oshirmasdan turib ham, byudjet xarajatlari nazoratini ta'minlash orqali kambag'allik ko'lamini qisqartirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili: Davlat moliyaviy nazorati tizimi sohasida taniqli xorijlik olimlardan: Van Xorn Dj.K., A.M Godin, I.V.Podporina, L.L.Sergeeva, M.Dmitriev, E.Dobson, L.A.Drobozina, G.V.Ershova, N.P.Efimova, L.V.Juravleva, A.I.Zemlin, G.P.Zver'eva, A.T.Igudii, Irvin Devid., N.G.Ivanova, A.G. Nagovisinlarning ilmiy ishlari va maqolalari tahlil qilindi.

Referendumdan so'ng, 9-iyul kuni O'zbekiston prezidentligi uchun muddatidan avvalgi saylovlar bo'lib o'tdi va unda amaldagi prezident Shavkat Mirziyoyev 87,05 foiz ovoz bilan qayta saylandi. Unga "Adolat" partiyasidan raqib bo'lgan Robaxon Mahmudova 4,43 foiz, Xalq demokratik partiyasidan Ulug'bek Inoyatov 4,02 foiz, Ekologik partiyadan Abdushukur Hamzayev esa 3,74 foiz ovoz oldi.

2022-yilning eng oxirida O'zbekistonda ma'muriy islohotlar boshlandi. Vazirlik va idoralar sonini ikki barobardan ko'proq — 61 tadan 28 tagacha kamaytirish, davlat

xizmatchilarining sonini esa 30–35 foizga qisqartirish ko'zda tutilgan edi. Davlat organlarining qisqartirilishi va ularning xarajatlari maqbullashtirilishi natijasida O'zbekiston davlat budjeti 2,8 trillion so'm iqtisod qilishi kutilayotgan edi. Ammo islohot loyihalari umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilinmadi, shu va boshqa omillar (masalan, vazirlarning avvalgi lavozimlariga qayta tayinlanishi) sabab jamoatchilik ushbu o'zgarishlarni sovuq kutib oldi. Islohot tanqidchilari uchun Adliya vazirligi alohida bayonot berishga majbur bo'ldi. Avgust oyida prezident o'z ma'muriyatining yangi tuzilmasini tasdiqladi. Prezident administratsiyasi rahbari lavozimi tugatilib, prezidentning ikkita qo'shimcha yordamchisi lavozimlari joriy etildi, ulardan biriga prezidentning bungacha administratsiya ijro apparatida ishlab kelgan to'ng'ich qizi Saida Mirziyoyeva tayinlandi. Maslahatchilar soni 9 tadan 11 taga oshirildi, jumladan, administratsiya rahbari lavozimi tugatilganidan keyin Sardor Umrzoqov yangi tashkil etilgan alohida topshiriqlar bo'yicha maslahatchi lavozimini egalladi. 2017 yildan buyon O'zbekiston hukumati iqtisodiyotini liberallashtirish bo'yicha olib borayotgan islohotlar biznes yuritish yo'lidagi xorijiy valyuta konvertatsiyasi yetishmasligi, yuqori import bojlari va soliq stavkalari kabi cheklovlarni bartaraf etmoqda. Bank ekspertlari O'zbekiston hukumatiga davlatning iqtisodiyotdagi rolini maqbullashtirishni davom ettirishni va xususiy sektorni rivojlantirish maqsadida qolgan to'siqlarni bartaraf etishni tavsiya etmoqda. Ushbu cheklovlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- investitsiya muhitini yaxshilash;
- soliq ma'muriyatchiligidagi islohotlarni to'liq amalga oshirish;
- davlat budjeti operatsiyalarining, ayniqsa, davlat korxonalariga beriladigan samarasiz yashirin subsidiyalarga nisbatan shaffofligini ta'minlash;
- yerdan foydalanish bo'yicha huquq hamda sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligida mulkka egalik qilish huquqini isloh qilish;
- davlat monopolistik korxonalarini tarkibiy jihatdan (tizimli) qayta qurish, korporativ boshqaruv va moliyaviy hisobotga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish;
- davlatning eksportga yo'naltirilganlikni qo'llab-quvvatlashi (jumladan, ISO standarti bo'yicha sertifikatlash, ekspert xatarlarini kamaytirish, diversifikatsiyalash, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish).

O'rta muddatli istiqbolda infratuzilmani (xususan, energetika, transport va logistika) modernizatsiya qilish hamda oliy ta'lim sifatini yaxshilash mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga yordam beradi. 2022 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasi 5,7 foizga yetdi. Bu haqda Jahon bankining «Jahon iqtisodiy istiqbollari» choraklik hisobotida so'z boradi. «2023 yilda Rossiyadagi retsessiya va Xitoydagi o'sishning sustligi Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi iqtisodiy faollik darajasiga salbiy ta'sir qiladi», — deyiladi hisobotda. Jahon banki prognoziga ko'ra, mintaqa iqtisodiyotining o'sishi 3,9 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 4,9 foizga, Qozog'istonda 3,5 foizga, Qirg'izistonda 3,5 foizga, Tojikistonda 5 foizga o'sishi kutilmoqda. Eslatib o'tamiz, o'tgan yilning oktabr oyida Jahon banki O'zbekistonda 2022 yilda YAIM o'sishi prognozini 4,3 foizdan 5,3 foizga ko'targan, biroq 2023 yil uchun 5,3 foizdan 4,9 foizga tushirgan edi.

2023-yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 6 foizga o'sgan. Bu haqda Shavkat Mirziyoyev raisligidagi videoselektor yig'ilishida ma'lum qilindi. Yig'ilish avvalida iqtisodiy kompleks mavzusi birinchisi ekani, kelgusida barcha soha va tarmoqlar faoliyati tanqidiy ko'rib chiqilishi ta'kidlandi. Shuningdek, o'tgan yili iqtisodiy o'sish 6 foizni tashkil qilgani,

bu yil ham bu borada katta rejalar olingani qayd etildi. Oktabrdagi prezident ishtirokidagi yig'ilishda yil yakunlari bo'yicha YaIM o'sishi kamida 5,6 foiz bo'lishi kutilayotgani aytilgandi.

Avvalroq Jahon banki O'zbekistonning 2023-yilgi iqtisodiy o'sishini 5,5 foizga baholagandi. Yil boshida Jahon banki O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishini 4,9 foiz darajasida prognoz qilgan bo'lsa, iyun oyida ko'rsatkichni 5,1 foizga, oktabr oyida esa 5,5 foizga yaxshilagan edi. Xalqaro valyuta jamg'armasi O'zbekistonda 2024-yilda iqtisodiy o'sish 5,7 dan 5,2 foizgacha sekinlashishi, inflyatsiya esa energiya tariflari oshishi hisobiga 11 foizgacha tezlashishini prognoz qilgandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida joriy yilning 9 oyida erishilgan iqtisodiy natijalar, yil yakunigacha kutilayotgan ko'rsatkichlar va 2024-yilga mo'ljallangan makroiqtisodiy prognozlar muhokama qilindi.

Joriy yilning 9 oyida mamlakatimiz iqtisodiyoti 5,8 foizga o'sdi. Jumladan, sanoat 5,7 foiz, qishloq xo'jaligi 4,1 foiz, xizmatlar 12,1 foizga oshdi.

Jahon bozorlari va logistikadagi murakkabliklarga qaramay, eksport 23,5 foizga oshib, 17,7 milliard dollarni tashkil qildi.

Iqtisodiyot tarmoqlari hamda hududlarda yirik sanoat va infratuzilma loyihalari amalga oshirilayotgani hisobiga, 226,6 trillion so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,8 foizga ko'paydi.

Yig'ilishda joriy yil yakunigacha kutilayotgan ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Davlatimiz rahbari dunyodagi og'ir vaziyat iqtisodiyotga salbiy ta'sir etayotgani va noma'lumligicha qolayotgani, shu bois barqaror iqtisodiy o'sishni izchil davom ettirish uchun ichki imkoniyatlarni ko'proq ishga solish zarurligini ta'kidladi.

Aynan shuning uchun 2023-yildan qo'shilgan qiymat solig'i 15 foizdan 12 foizga tushirildi. Buning evaziga tadbirkorlar ixtiyorida 7 trillion so'm qo'shimcha mablag' qoldi.

Shuningdek, hududlar infratuzilmasini yaxshilashga 35 trillion so'm, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga 19 trillion so'm yo'naltirildi.

Shularning natijasida, joriy yilda nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan global iqtisodiyot 3 foiz o'sishi prognoz qilinayotgan paytda, milliy iqtisodiyotimiz kamida 5,6 foizga oshishi kutilmoqda.

Yig'ilishda 2024-yilda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish chora-tadbirlari atroflicha muhokama qilindi.

Ma'lumki, joriy yil sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston - 2030" strategiyada iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish bo'yicha ko'plab maqsad va vazifalar belgilandi. Hukumatga 2024-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturni mazkur strategiyadagi vazifalarni bajarish nuqtai nazaridan puxta ishlab chiqish topshirildi.

Bunda yalpi ichki mahsulotning hozirgi o'sish sur'atini kelgusi yilda ham davom ettirish uchun barcha imkoniyat va zaxiralar borligi ko'rsatib o'tildi.

Xususan, 2024-yilda 13 milliard dollarlik 300 dan ziyod loyihani ishga tushirish, energiya ta'minotini barqarorlashtirish, tarmoqlar samaradorligi oshirish hisobiga sanoatda 6 foiz o'sish imkoniyati bor.

Xizmatlar sohasida 15 foiz o'sishni ta'minlash uchun transport, logistika, agro-xizmatlar, sug'urta, lizing kabi yo'nalishlardagi foydalanilmayotgan imkoniyatlarni to'liq ishga solish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari transport, suv xo'jaligi, kommunal kabi sohalarda boshlangan islohotlarni faollashtirish, bunda aholi va biznesni qo'llab-quvatlashga alohida ahamiyat qaratish zarurligini ta'kidladi.

XULOSA.

Tezisni yoritish jarayonida shunday xulosaga kelindiki, bugungi globallashuv davrda iqtisodiy islohotlarni olib boorish o'zining muhim ahamiyatini kasb qiladi. Davlat tomonidan bu borada islohotlarni olib boorish va imtiyozlar yaratish davlat taraqqiyoti uchun juda samarali ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, iqtisodiy o'sish sur'atlarini tahlil qilish iqtisodiy rivojlanishning davriy samaradorligini aniqlashga imkon beradi.

References:

1. D. Bogoyavlenskaya (ed.), Iqtidorning ishchi kontseptsiyasi, 2-nashr., o'zgartirilgan. Moskva (2003).
2. I. Isaeva, Individual o'quv marshrutlarini loyihalash texnologiyasi: o'quv qo'llanma. Magnitogorsk, Magnitogorsk nashriyoti. davlat texnikasi. G. I. Nosov nomidagi un-ty (2015).
3. K. Kennedi, J. Farli, iqtidorli talabalarga maslahat berish: maktabga asoslangan mulohazalar va strategiyalar. Boshlang'ich ta'lim xalqaro elektron jurnali, 10(3), 361-367 (2018).
4. ALLAYAROV, D. (2024). Sportchilarning sport musobaqlarida ishtirok etishning psixologik xususiyatlari. UzMU xabarlari, 1(1.3. 1), 68-71.
5. Allayarov, D. (2024). Talabalar sport faoliyatining psixologik jihatlari va rollari. Tamaddun nuri jurnali, 6(57), 277-280.
6. Dilmuradovna, R. Z. (2024). The role of psychology in teaching foreign languages. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 28, 11-12.
7. Ruzmetova, Z. (2024). Talabalarda chet tillarni o'rganish jarayonida iroda kuchining namoyon bo'lishi va psixologik xususiyatlari. Tamaddun nuri jurnali, 6(57), 273-276.